XALQ DEPUTATLARI OLTINSOY TUMANI KENGASHINING QARORI

Oltinsoy tumani, Mustaqillik ko‘chasi 8-uy. 190700, tel.: (+99876) 47-77-338

2021 - yil 31 - dekabr VI-39-84-8-108-K/21 Oltinsoy tuman hokimligi

Oltinsoy tumanining 2022-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to’g’risida

O’zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to’g’risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 99-moddasi, O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 30-dekabrdagi “2022-yil uchun O’zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to’g’risida”gi O'RQ-742-sonli Qonuniga muvofiq hamda Surxondaryo viloyat Moliya bosh boshqarmasining 2021-yil 30-dekabrdagi №22-04-10/6387-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Oltinsoy tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O’zbekiston Respublikasining 2021-yil 30-dekabrdagi “2022-yil uchun O’zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to’g’risida”gi O'RQ-742-sonli Qonuni ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. O’zbekiston Respublikasining “2022-yil uchun O’zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to’g’risida” 2021-yil 30-dekabrdagi O’RQ-742-son Qonuniga (keyingi o’rinlarda Qonun deb ataladi) muvofiq, Oltinsoy tuman mahalliy budjetining 2022-yil uchun daromadlari:

81 mlrd. 590 mln. 187 ming so’m, xarajatlari 194 mlrd. 872 mln. 359 ming so’m prognoz qilinganligi hamda Oltinsoy tumani budjetiga ajratilgan tartibga soluvchi budjetlararo transfert 113 mlrd. 282 mln. 172 ming so’m miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin;

3. 2022-yil uchun tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi 1-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. 2022-yil uchun Oltinsoy tuman budjetidan budjet mablag’larini

taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag’larning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2022-yil uchun tumanlar va shaharlar budjetlariga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. 2022-yil uchun tuman mahalliy budjetining daromadlari va xarajatlarining prognozi 4-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7. 2022-yil uchun viloyat byudjetidan tuman mahalliy budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo’l qo’yilmasligi Qonunda belgilab qo’yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

8. 2022-yil uchun tuman budjetining zaxira jamg’armasi hajmlari 1 mlrd. 837 mln. 552 ming so’m miqdorida belgilansin.

Tuman budjetining 2022-yil uchun zaxira jamg’armalari tegishli budjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

Oltinsoy tuman budjetini ijro etishda yuqori turuvchi budjetdan ularga ajratiladigan budjetlararo transfertlarning prognozidan oshgan qismi uchun tegishli budjetlarining zaxira jamg’armalar miqdorlariga aniqlashtirish kiritilmaydi.

9. 2022-yil uchun tuman budjeti shaxsiy g’azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag’larining yo’l qo’yiladigan eng kam miqdori 743 mln. 330 ming so’mni tuman budjeti shaxsiy g’azna hisobvarag’ida turgan budjet mablag’larining yo’l qo’yiladigan eng kam miqdori 6-ilovaga muvofiq belgilansin.

10. O’zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2022-yilda xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy budjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy budjet xarajatlarini hududiy budjet mablag’lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo’yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2022-yilda quyidagi soliq turlari:

a) Quyidagi soliq turlari tuman budjetiga to’liqligicha o’tkazib beriladi:

- Jismoniy shaxslarning yer solig’i;

- Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

- Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

- Aylanmadan soliq;

- Yakka tartibdagi tadbirkorlardan olinadigan qat’iy belgilangan miqdordagi daromad solig’i;

- Noruda qurilish materiallari uchun yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

- Yig’imlar;

- Ijara to’lovlari.

b) Quyidagi soliq turlari va boshqa majburiy to’lovlar viloyat budjeti hamda tuman budjetlari o’rtasida taqsimlanadi:

- Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig’i;

- Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (Elektr stantsiyalari tomonidan to’lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqdan tashqari);

- Benzin, dizel, siqilgan gaz, suyultirilgan gaz yoqilg’isini yakuniy iste’molchilarga sotishdan aksiz solig’i;

- Yuridik shaxslar yer solig’i;

-Davlat mulkini xususiylashtirishdan (sotishdan) tushadigan tushumlar.

v) Mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig’i va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig’i va tamaki mahsulotlari uchun aksiz solig’idan tushumlar tuman aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq o’tkazib beriladi. (har bir soliq turi bo’yicha ajratmalar normativi ko’rsatiladi)

11. Oltinsoy tuman hokimining birinchi o’rinbosari I.Babakulov,

Moliya bo’limi mudiri J.Jo’raev, tuman Davlat soliq inspeksiyasi (Sh. Nuriddinov) tuman hokimliklari va mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to’lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjet prognoz ko’rsatkichlarni o’z vaqtida va samarali bajarish;

budjet mablag’laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to’lovlarning to’liq tushumini ta’minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo’shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

12. Oltinsoy tuman davlat soliq inspeksiyasi (Sh.Nuriddinov) O’zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to’liq va to’g’ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o’z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig’i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo’yicha doimiy tahlillar o’tkazgan holda, soliqlarni to’liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to’lovlari bo’yicha soliq qarzdorligiga yo’l qo’ymaslik choralarini ko’rish;

aylanmadan soliq turi bo’yicha soliq to’lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to’liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o’rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o’tkazish;

Bunda, mazkur yo’nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ’ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ’ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig’ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

13. Oltinsoy tuman davlat soliq inspeksiyasi (Sh.Nuriddinov), Kadastr agentligi huzuridagi Davlat kadastrlari palatasining Oltinsoy tuman filiali (G’.Ibragimov) 2022-yildan boshlab yuridik shaslar mol-mulk solig’ini hisoblashda ko’chmas mulklarga 1 kv.metr uchun minimal miqdorlar joriy etilganligidan kelib chiqib, tumanda mavjud soliq to’lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to’liq hisoblanishini ta’minlasin.

14. Oltinsoy tuman davlat soliq inspeksiyasi (Sh.Nuriddinov), tuman hokimligi bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlarni aniqlash bo’yicha xatlovlar o’tkazish;

xatlov natijalari bo’yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to’liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o’rnatsin.

15. Majburiy ijro byurosi Oltinsoy tuman bo’limi (R.Xudoyqulov) tuman davlat soliq inspeksiyasi (Sh.Nuriddinov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to’lovlar bo’yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko’rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo’yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko’rish vazifasi yuklatilsin.

16. Mahalla va oilani qo’llab quvatlash bo’limi (Q.Safarov), tuman hokimligi bilan jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo’yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko’rsatsin.

17. Irrigatsiya bo’limi (M.Musurmanov) va davlat soliq inspeksiyasi

(Sh.Nuriddinov), tuman hokimligi bilan birgalikda tumanda sug’orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo’yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo’yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to’liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy byudjetlarga to’liq undirib olish vazifasi yuklatilsin.

Bunda, qishoq xo’jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resuslari hajmlari va ushbu hajmlar bo’yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo’yicha doimiy tahlillar o’tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

18. Oltinsoy tuman Ichki ishlar bo’limi boshlig’i (O.Jiyanov), tuman yo’l harakati xavfsizligi bo’limi, Davlat xizmatlari markazi (J.Ishniyazov) hisoblangan boj, jarima va yig’imlarni o’z vaqtida o’rnatilgan tartibda byudjetga undirish choralarini ko’rib borsin.

19. Kengashning mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo’yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy budjetning qo’shimcha manbalaridan foydalanish to’g’risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida budjet qonunchiligiga to’liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy budjetning qo’shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag’larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o’rnatishga va natijalari bo’yicha tavsiyalar berishga monitoring qilishga;

mahalliy budjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo’naltirilishida ishtirok etadi va ushbu mablag’larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

20. Tuman budjeti jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo’shimcha mablag’larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg’armasi”ga yo’naltirsin.

Bunda, tuman xalq deputatlari, Yoshlar ishlar agentligi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan

hokim yordamchilari budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ’ibot-tashviqot ishlarini olib borishga masul etib belgilansin;

mahalliy budjetlarning qo’shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruktsiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro’yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to’g’risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko’ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

21. Tuman hokimining birinchi o’rinbosari I.Babakulov, xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati, tuman hokimligi tegishli tashkilot boshliqlari:

mahalliy budjet daromad va xarajatlarining prognoz ko’rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko’rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan budjet mablag’laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo’yicha Kengashga bir chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

22. Tuman hokimligi Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to’lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

23. Mazkur qaror “Xalq va hayot” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

24. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

25. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi va tuman hokimligi zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **A.T.Djumayev**

Халқ депутатлари Олтинсой туман
Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-39-84-8-108-K/21-сон қарорига
1-илова

Олтинсой маҳаллий бюджети даромадларининг 2022 йилги асосий прогноз кўрсаткичлари

минг сўмда

Т/Р	Даромад турлари	Жами
ЖАМИ		**52 297,9**
1	Юридик шахслардан олинадиган фойда солиғи	0
2	Ягона солиқ тўловидан Давлат бюджетига ажратмалар	5 371
3	Жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи	22 496
4	Якка тартибдаги тадбиркорлар учун жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи	616
5	Қўшилган қиймат солиғи	0
6	Акциз солиғи, жами	6 506
	шу жумладан:	
	- бензин, дизел ёқилғиси ва газ реализациясидан солиқ	6 506
7	Юридик шахсларнинг мол-мулкига солинадиган солиқ	500
8	Жисмоний шахсларнинг мол-мулкига солинадиган солиқ	3 347
9	Юридик шахслар ер солиғи	1 715
10	Жисмоний шахслардан олинадиган ер солиғи	6 852
11	Ер қаъридан фойдаланганлик учун солиқ (норуда материаллари)	300
12	Сув ресурсларидан фойдаланганлик учун солиқ	752
13	Давлат божи	
14	Жарималар	
15	Ижара тўлови	193
16	Давлат ташкилотларининг соф фойдасидан даромад	
17	Йиғимлар	3 275
18	Хусусийлаштириш	376
1	**Ахоли сонига нисбатан Акциз солиғи**	**29 292**
	Ахолининг умумий сони	181 696
	-Мобил алоқа хизматлари учун акциз солиғи	11 087
	-Алкогол махсулотлари, ва пиво учун акциз солиғи	6 316
	-Тамаки махсулоталри учун акциз солиғи	11 889
Туман бўйича жами		**81 590**

Халқ депутатлари Олтинсой туман
Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-39-84-8-108-K/21-сон қарорига
2-илова

2022 йил учун Олтинсой тумани бюджетидан биринчи даражали бюджет маблағларини тақсимловчиларга ажратмаларининг чекланган миқдорлари

минг сўмда

Харажатлар миқдори, Жами		**194 872 359,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	194 872 359,0
	шундан	
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	0,0
1	**Халқ таълими бўлими**	**10 965 449,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	10 965 449,0
	шундан	
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
2	**Мактабгача таълим бўлими**	**8 659 910,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	8 659 910,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
3	**Соғлиқни сақлаш**	**55 622 398,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	55 622 398,0
	шундан	
	давлат тиббиёт ташкилотлари ҳамда вилоят аҳолисини дори воситалари ва тиббиёт буюмлари билан таъминлаш учун харажатлар	
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
4	**Маданият бўлимига**	**2 180 906,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	2 180 906,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
5	**Туризм ва спорт**	**1 922 013,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	1 922 013,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
6	**Ободонлаштириш**	**7 367 961,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	7 367 961,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	0,0
7	**Қишлоқ хўжалиги бошқармаси**	**446 922,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	446 922,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	0,0
8	**Ирригация тизимлари ҳавза**	**1 152 297,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	1 152 297,0
	сув насос станцияларининг электр энергияси истеъмоли учун харажатлар	
	мелиорация объектларини таъмирлаш ва тиклаш ишларини амалга ошириш учун харажатлар	
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	0,0
9	**Маҳаллий бюджетларда ҳоким ёрдамчиларининг тавсиялари асосида маҳалла инфратузилмасини яхшилаш учун**	**1 303 020,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	1 303 020,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	0,0
10	**Ветеринария**	**1 102 137,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	1 102 137,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
11	**Тиббий ижтимоий хизматлар**	**46 800,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	46 800,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
12	**Банд.лик**	**729 933,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	729 933,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
13	**Фуқароларни ўзини ўзи бошқариш органларини сақлаш**	**5 320 587,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	5 320 587,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	0,0
14	**Молия бўлими**	**846 260,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	846 260,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	0,0
	Туман ва шаҳар маҳаллий бюджетларига трансфертлар	
15	**Фермерлар хўжаликлари бухгалтерия марказлари**	**310 142,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	310 142,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
16	**Махалла ва Оилани қўллаб қувватлаш бўлими**	**582 072,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	582 072,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
17	**Давлат ҳокимият органлари**	**2 181 604,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	2 181 604,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
18	**Ижтимоий мослашув маркази**	**46 714,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	46 714,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	0,0
19	**Халқ кабулхонаси**	**35 850,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	35 850,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
20	**Махаллабай ишлаш маркази**	**4 571 218,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	4 571 218,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	0,0
21	**Халқ депутатлари Олтинсой тумани Кенгаши котибияти**	**194 925,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	194 925,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	0,0
22	**Захира Жамғармаси**	**1 837 552,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	1 837 552,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
23	**Фуқаролар ташаббуси жамғармаси**	**9 279 636,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	9 279 636,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
24	**Болали оилаларга ва кам таъминланган оилаларга нафақалар ва компенсациялар**	**78 166 053,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	78 166 053,0
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	
25	**Бошқа ташкилотлар**	**0,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	
	объектларни лойиҳалаштириш, қуриш (реконструкция қилиш) ва жиҳозлаш учун капитал қўйилмалар	

Халқ депутатлари Олтинсой туман Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-39-84-8-108-K/21-сон қарорига
3-илова

Солиқлар ва йиғимлардан Олтинсой туман маҳаллий бюджетига 2022 йил учун ажратмалар меъёри

Фоиз ҳисобида

Т/Р	туман номи	Айланмадан солиқ	Якка тартибдаги тадбиркорлардан олинадиган қатъий белгиланган миқдордаги даромад солиғи (3 111 401)	Жисмоний шахсларнинг ер солиғи	Жисмоний шахсларнинг мол-мулкига солинадиган солиқ	Жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи	Сув ресурсларидан фойдаланганлик учун солиқ (Электр станциялари томонидан тўланадиган сув ресурсларидан фойдаланганлик учун солиқдан ташқари)	Бензин, дизель, сиқилган газ, суюлтирилган газ ёқилғисини якуний истеъмолчиларга сотишдан акциз солиғи	Юридик шахсларнинг мол-мулкига солинадиган солиқ *	Норуда қурилиш материаллари учун ер қаридан фойдаланганлик учун солиқ **	Юридик шахслар ер солиғи ***	Йиғимлар	Давлат мулкини хусусийлаш-тиришдан (сотишдан) тушадиган тушумлар	Ижара тўловлари
1	Олтинсой тумани	100	100	100	100	80	50	80	100	100	50	100	20	100

Халқ депутатлари Олтинсой туман
Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-39-84-8-108-K/21-сон қарорига
4-илова

2022 йил учун Олтинсой туман бюджети даромадлар ва харажатлар прогноз кўрсаткичлари

минг сўмда

Ҳудуд номи	Даромад	Харажат
ЖАМИ	**81 590 187**	**194 872 359**
Олтинсой тумани	81 590 187	194 872 359

Халқ депутатлари Олтинсой туман
Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-39-84-8-108-K/21-сон қарорига
5-илова

Олтинсой туман бюджетига 2022 йилда ажратиладиган тартибга солувчи бюджетлараро трансфертлар миқдорлари

минг сўмда

Шаҳар ва туманлар	**Тартибга солувчи трансферт миқдори**
ЖАМИ	**113 282 172,0**
шундан	
Олтинсой тумани	113 282 172,0

Халқ депутатлари Олтинсой туман
Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-39-84-8-108-K/21-сон қарорига
6-илова

2022 йилда Олтинсой туман маҳаллий бюджетида йўл қўйиладиган энг кам маблағлар миқдори

минг сўмда

Т/р	**Ҳудуд номи**	**Миқдор**
	ЖАМИ	**743 330,0**
	шундан	
1		**743 330,0**